

Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2022- yil
Yanvar-fevral**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
ulushi –
63,4 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
670,7
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
1944,7
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
65,6 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
114,8 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
112,4 %**

2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1944,7** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **359,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,8** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	1 944,7	114,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	105,8	119,4
Moliyaviy xizmatlar	382,7	144,1
Transport xizmatlari	331,8	111,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	298,4	108,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	44,3	99,2
Savdo xizmatlari	601,3	108,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	49,4	111,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	77,4	100,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	45,0	118,0
Ijara xizmatlari	42,0	82,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	56,6	109,9
Shaxsiy xizmatlar	127,4	111,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	22,2	100,9
Boshqa xizmatlar	58,8	116,3


Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-fevral oylarida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **144,1** %. Nisbatan past ko'rsatkich Ijara xizmatlarida kuzatilgan – **82,3** %.







2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2022-yilning yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari hajmi **331,8** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **111,4** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **17,1** % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2022- yil yanvar – fevral oylarida)



-  Avtomobil transporti
-  Omborxon va yordamchi transport xizmatlari
-  Pochta va kuryerlik xizmatlar


2022- yilning yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **89,9** % dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **92,3** % ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,9 %** ni tashkil etib, bu **601,3** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **502,7** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **31,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022-y.
yanvar-
fevral

601,3 mlrd.
so'm



502,7 mlrd.
so'm



Hajmning
o'sishi

108,5 %



94,0 %

2021-y.
yanvar-
fevral



2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **79,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **14,1 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **6,4 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2022- yilning yanvar-fevral oylarida)




Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo ulushi **80,2 %** ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2022- yil yanvar-fevral oylarida)

2022- yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **382,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida ularning hajmi **265,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **19,7** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **16,7** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **117,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **144,1** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ularning o'sish sur'ati **118,6** % ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar- fevral oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,2 %** oraliq'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **3,0 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-fevral oylarida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat



Sug'urta bo'yicha
xizmatlar




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,6 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,3 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,1 %** ni tashkil etgan .

2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y.
yanvar-fevral

87,6
mlrd. so'm

104,4%

5,5 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

18,2 mlrd. so'mga

2022- y.
yanvar-fevral

105,8
mlrd. so'm

119,4 %


5,4 %

2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-fevral oylarida ularning ulushi **93,7 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,8 %** ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 77,4 mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining 4,0 % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.
Yanvar-fevral




2021- y.
Yanvar-fevral

45,0 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi




35,0 mlrd. so'm

2,3 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi




2,2 %

118,0 %



O'sish sur'ati



101,7 %

2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

38,4 mlrd.
so'm

44,3 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2021- y.
yanvar-fevral

2022- y.
yanvar-fevral

112,6 %

99,2 %

O'sish
sur'ati

Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar


2021-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **5,9** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2021- y.
Yanvar-
fevral

2022- y.
Yanvar-
fevral



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2022- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **80,9** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-fevral oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **82,0** % ni tashkil etgan.



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-fevral oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Namangan viloyati	1944,7	114,8	102,8
Namangan sh.	696,5	117,7	102,8
tumanlar:			
Mingbuloq	84,1	113,2	105,1
Kosonsoy	109,4	112,8	104,4
Namangan t.	113,3	113,1	103,7
Norin	91,8	113,6	104,5
Pop	146,3	114,3	101,1
To'raqo'rg'on	129,7	111,2	100,2
Uychi	109,8	113,9	104,7
Uchqo'rg'on	112,7	112,9	101,2
Chortoq	119,9	112,7	101,9
Chust	129,8	115,1	102,7
Yangiqo'rg'on	101,4	113,3	103,7

Namangan viloyati statistika boshqarmasi




2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-fevral oylarida)



2022- yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **35,8 %** (2021-yilning yanvar-fevral oylarida – **36,2 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **4,3 %** (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – **4,2 %**) qayd etildi.

2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning
o'sishi

670,7
ming so'm

112,3 ming
so'mga

2022- yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **670,7** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,4 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021 - yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **558,5** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,7 %** da qayd etilgan.

112,4 %

O'sish sur'ati

2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

21 326
birlik



1 578
birlikka
o'sgan

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

107,8 %



7,3 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




2022- yil yanvar-fevral

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar-fevral oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,6 %** ni tashkil etdi

2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **79,4 %** ga to'g'ri keldi.

1- mart holatiga

2021- y.

86,1 %

2022- y.

86,7 %

Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00